

O'zbekiston xalq shoiri, nosir, mohir tarjimon Asqad Muxtor

Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan O'zbekiston xalq shoiri, nosir, mohir tarjimon Asqad Muxtor tavalludining 100 yilligi munosabati bilan "Asqad Muxtor ijodining ma'naviy - ma'rifiy ahamiyati" mavzusida onlayn anjuman o'tkazildi. Unda Institut xodimlari, akademiklar va yetakchi olimlar, yozuvchilar ishtirok etdi.



Anjumanga taqdim etilgan ma'ruzalarning mavzulari rang-barang bo'lib, ularda Asqad Muxtor ijodining turli qirralari, serqirra ijodining bugungi o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, davr muammolarining Asqad Muxtor ijodida aks etishi, shoir she'riyati hamda nasridagi falsafaviylik, qolaversa, tabiat, do'stlik, sevgi va sadoqat, xalqlar do'stligi mavzulari muhokama qilindi.



Asqad Muxtorning "Po'lat quyuvchi" dostoni, "Hamshaharlarim" she'riy to'plami, "Po'lat shahri" ocherk va hikoyalar to'plami, shuningdek, "Opa-singillar" romanlarida ishchilar sinfi, respublikada ishchilar sinfining shakllanishi, o'zbek ayolining ma'nan uyg'onishiga bag'ishlangan. "Tug'ilish" romanida esa yoshlarning yirik qurilishlardan biridagi ishtiroki haqida hikoya qilinadi. "Davr mening taqdirimda" - iqrar-roman bo'lib, unda yaratuvchi inson va kurashchi zamondosh timsoli gavdalanadi. "Qoraqalpoq qissasi" hamda "Mangulikka dahldor" dostonlarida Asqad Muxtor tarixiy-inqilobiy mavzularga yuzlanadi, qahramonlik fe'l-atvor shakllanishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, u bir qator adabiy-tanqidiy asarlar muallifi hamda mohir tarjimon bo'lgan.